

Germaniyaning SAP kompaniyasi mutaxassislari bilan onlayn video-seminar

// 01.05.2015

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sap-kompaniyasi-mutahassislari-bilan-onlayn-video-seminar>

2015 yil 30 aprelda "O'zkimyosanoat" DAKda kompaniya korxonalarini moliya-iqtisodiy, buxgalter hamda axborot-kommunikatsiya xizmatlarining rahbarlar va mutaxassislari uchun moliya-iqtisodiy vazifalarni innovatsiya texnologiyalarni yordamida yechish bo'yicha onlayn video-seminar Germaniyaning kompyuter dasturlarini yaratish SAP kompaniyasi ishtirokida tashkil qilindi.

Ushbu seminardan ko'zlangan maqsad – kompaniya korxonalarida ishlab chiqarish-xo'jalik va moliya-iqtisodiy faoliyatini "SAP korxonalar resurslarini boshqarish" dasturi negizidaboshqarish tizimini joriy etish loyihasini muhokama etishdan iborat bo'ldi. Ushbu dastur ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlar avtomatlashtirilishiga qaratilgan.

Mazkur seminar davomida SAP ERP texnologiyalari asosida mobil tahliliy hisobotlar va ishlab-chiqarish borasidagi dolzarb axborotning onlayn-tartibda tezkor uzatilishi korxonalar haqidagi uyg'unlashtirilgan yagona elektron korporativ axborot va uning moliyaviy xo'jalik faoliyati bo'yicha ma'lumotlar tizimiga erkin, o'z vaqtida va oson kirish imkoniyatini ta'minlaydi.